

ABDULLA AVLONIY VA JADID ADABIYOTI

Jo'rayev Oybek Sherali o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

3-bosqich talabasi

ABDULLA AVLANI AND MODERN LITERATURE

Jorayev Oybek Sherali ogli

TDPU named after Nizami, Uzbek Language and

Literature Department 3rd Grade Student

Annotatsiya:

Mazkur maqolada o'zbek uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yirik vakillari va ularning o'lkada olib borgan faoliyati haqida ma'lumot berilgan. Bu harakatlar bugungi kun uchun qay darajada foyda beryotgani to'g'risida so'z yuritilgan.

Abstract:

This article provides information about major representatives of Uzbek literature of the Uzbek renaissance period and their activities in the country. It was discussed how these actions are beneficial for today.

Kalit so'zlar: Jadid, harakat, maktab, ishtirokchilar, Ismoilbek Gaspirali. pedagogika, darslik.

Keywords: Jadid, movement, school, participants, Ismoilbek Gaspirali. Pedagogy, textbook.

O'zbek milliy uyg'onish davrining yirik vakillari hisoblangan jaded bobolarimiz: Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Adulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, Tavallo, Is'hoqxon Ibrat, Abduqodir Shakuriy, Majid Qodiriy, Ajziy, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulvohid Burxonov, Sadridin Ayniy, Abduqodir Muhiddinov, Obidjon Mahmudov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Muhammadsharif So'fizoda, Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov, Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboovun Salimovlar jadidchilik harakatining vujudga kelishi, qolaversa, harakatning o'lkada keng yoyilishiga ulkan hissa qo'shdilar. Ular o'lkada maktablar ochdilar. Mazkur maktablar orqali sohaga oid ilk pedagogik qarashlarni vujudga keltirdilar, maktablar uchun darsliklar yaratdilar. Matbuotni vujudga keltirdilar, kitob nashr etish ishlarida bosh bo'ldilar. Dastlabki teatrlarni yaratilishiga zamin hozirladilar. Bu teatrlarda o'sha davrning kamchilik va nuqsonlarini ochiq-oydin ochib berdilar. Hattoki, teatrlar uchun dramatik asarlar

yaratdilar va bu asarlardagi rollarni sahnada o'zlari mahorat bilan ijro etdilar. Bir so'z bilan aytganda, jadidlar hozirgi obod va ozod, erkin va farovon hayotimiz uchun ilk mustaqillik poydevorini qo'ydilar.

Jadidchilik yoki **jadidizm** (arabcha: جديد jadīd — yangi) — XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy - siyosiy, ma'rifiy harakatdir. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoga tarqaldi.

Ushbu harakatning asoschisi turkiy millatga taaluqli qavmlarning chinakam jafokash insoni va turkiy xalqlar iftixori Ismoilbek G'aspirali hisoblanadi. U Sharq xalqlarining turmush tarzi va ma'naviy hayotida, xususan, maktab va maorif, matbuotida chinakam inqilob qilgan holatda, «usuli jadid» nomi bilan tarixga kirgan «usuli savtiya» maktablarning yaratilishi uchun zamin hozirlab berdi. Ismoilbek turkiy xalqlarning barchasini yagona millat deb bildi, shuning uchun ilm - ma'rifatda, haq-huquqda ularni dunyoviy taraqqiyot sari yetakladi. Keyinchalik uning ishlarini o'zbek uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yirik vakili Mahmudxo'ja Behbudiy davom ettirdi. «Behbudiy Gaspirinskiy yo'lga qo'ygan, «usuli jadid» maktablarini Turkistonda qaror toptirishda, ularni darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlashda jonbozlik ko'rsatdi» [1; 11-b].

Jadidchilik harakati va uning rivojlanishi uchun o'z hissasini qo'shgan insonlardan yana biri Abdulla Avloniydir. U o'zbek xalqning san'ati va adabiyoti, qadriyatlari hamda milliy madaniyatini, xalq maorifi ishlarini yo'lga qo'yishda juda katta ishlarga qo'l urgan adib, jamoat arbobi, iste'dodli pedagog, mohir dramaturg, va siyosatchi olim edi.

Abdulla Avloniy «usuli jadid» maktablari uchun to'rt qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rlar», «Birinchi muallim» (1912), «Turkiy Guliston yoxud axloq» (1913), «Ikkinchi muallim» (1915), «Maktab gulistoni» (1917) kabi darslik va o'qish kitoblarini xalq bolalarining ta'lim olishlari uchun yaratdi. Ushbu asarlarda hamda publisistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyati, san'ati, avvalo, ilm-fanini, maktab va maorifini ulug'lab, o'z xalqini ilmli, madaniyatli bo'lishga undaydi. O'tgan asr boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar juda ko'p edi. Shular orasida Avloniyning «Birinchi muallim»i ham o'ziga xos o'ringa egaligi bilan ajralib turadi. Adabiyotshunoslik ilmida «Birinchi muallim» – 1917-yil to'ntarishiga qadar 4 marta nashr etilganligi haqida ma'lumotlar bor. Avloniy uni yozishda mavjud darsliklarga, birinchi navbatda, Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval»iga suyanadi. Avloniyning «Ikkinchi muallim» kitobi «Birinchi muallim» kitobining uzviy davomi hisoblanadi. Birinchi kitobni alifbe, ikkinchisi xrestomatiya deb atashligi haqida ma'lumotlar bor. Kitob maktabga bag'ishlangan she'r bilan boshlanadi:

Maktab sizi inson qilur,
Maktab hayot ehson qilur,
Maktab g'ami vayron qilur,

G'ayrat qilib o'qing, o'glon!
 Maktabdadur ilmu kamol,
 Maktabdadur husnu jamol,
 Maktabdadur milliy xayol,
 G'ayrat qilib o'qing, o'glon!

Bu she'rda Avloniy maktabni insonning kelajakda yaxshi inson bo'lishi uchun yagona najot deb atashga ishora qiladi. Uni umrning chamanzori, kishilarni kamolot sari yetaklaydigan kuch sifatida baholaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, jadidlar o'sha davrning renesanschilari hisoblanadi. Ular bizga yaratib bergan ilk pedagogik qarashlar, mustaqillik uchun kurash masalasi bugungi kun uchun asos vazifasini o'tamoqda.

Ularning yangicha dunyoqarashli, oldindan uzoqni ko'ra bilish qobiliyatlari bugungi har bir o'zbek bolasida shakllantirilishi shart. Qolaversa, ulardek mard, jasur, kerak bo'lsa Vatani uchun jonini fido qilishga tayyor farzandlarni tarbiyalash bugungi kunning talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdujamilovna, Kalandarova Dilafruz. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
2. Dilafruz, Kalandarova. "Issues Of Uzbek Folklore And Its Research In Germany." *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
3. Reichl, Karl. *Routledge Revivals: Turkic Oral Epic Poetry (1992): Traditions, Forms, Poetic Structure*. Routledge, 2018.
4. Каландарова, Д. А., and З. Ф. Каршибоева. "ХАРАКТЕР ТВОРЦА В ПОЭЗИИ БАБУРА." *Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность. Сборник статей и тезисов докладов Международной научно-практической конференции 28 февраля 2020 г.* Litres, 2022.
5. Kalandarova Dilafruz, Dilafruz. "Research of the Sherabad Epic School Abroad." *International Journal on Integrated Education* 5.10 (2022): 149-151.
6. Alimova, Z. K. "Organization of Non-State Preschool Educational Organizations and Licensing of their Activities." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.1 (2022): 268-273.
7. Mansurovna, Rasulova Iroda, and Alimova Zulfiya Karimovna. "The formation of the psyche of preschool children through physical education and sports." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 7.12 (2019).

8. Karimovna, Alimova Zulfiya. "Reforms in the Field of Preschool Education and Modern Pedagogical Methods of Teaching." INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION 1.5 (2022): 105-110.

9. Karimovna, Alimova Zulfiya. "Education of children through national mobile games in preschool educational institutions." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.5 (2021): 486-490.

10. Алимova, Зулфия Каримовна, and Дилафруз Абдужамилевна Каландарова. "Воспитание детей в духе национальных традиций и ценностей в дошкольных образовательных учреждениях." ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. 2020.

11. Алимova, З. К., and И. М. Расулова. "ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНОСТИ ЛИЧНОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА." Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность. Сборник статей и тезисов докладов Международной научно-практической конференции 28 февраля 2020 г.. Litres, 2022.